**Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o'quv me'yoriy hujjatlarga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

## 1. Test topshiriqlarining qo'llanishi

Spetsifikatsiya Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni ona tili va adabiyot fanidan oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o'tkazish uchun o'qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo'ljallangan.

## 2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar

– Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

–Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim uchun ona tili va adabiyot fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

–O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'ridsida" 2022-yil 2-avgustdagi VM-425-son qarori;

–O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

## 3. Ona tili va adabiyot fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Ona tili va adabiyot fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishiladi.

## 4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

| Kodi | Fan mazmuni tarkibi |
|---|---|
| | **1. ONA TILI** |
| **1.1** | ***Fonetika, grafika***<br>Yozuvlar tarixi. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi. Nutq tovushlari va harf. Unli tovushlar. Undosh tovushlar. Nutq tovushlarining ma’no farqlash vazifasi. Fonetik hodisalar: so‘zlarda tovush ortishi, so‘zlarda tovush tushishi, so‘zlarda tovush almashishi. Bo‘g‘in va uning ahamiyati. Urg‘u va uning ahamiyati. |
| **1.2** | ***Talaffuz va imlo me’yorlari***<br>Harflar imlosi. Ayrim unlilar imlosi. Nutqda o‘zgaruvchi unlilar. Ayrim undoshlar imlosi. Qo‘sh undoshlar talaffuzi va imlosi. Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi. Nutqda o‘zgaruvchi undoshlar.<br>Asos va qo‘shimchalar imlosi. Qo‘shib yozish imlosi. Ajratib yozish imlosi. Bosh harflar imlosi. Chiziqcha bilan yozish imlosi. Ko‘chirish qoidalari. Imlo lug‘atidan foydalanish. |
| **1.3** | ***Punktuatsiya (tinish belgilari)***<br>**Punktuatsiya bo‘limi haqida ma’lumot.** Yozma nutqda tinish belgilarining ishlatilishi.<br>Ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi. Uyushiq bo‘lakli va ajratilgan bo‘lakli gaplarda ohang va tinish belgilari. Kiritmalar va undalmalarda tinish belgilari. Qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi.<br>Tinish belgilarining nutqdagi ahamiyati. |
| **1.4** | ***Leksikologiya***<br>**O‘zbek tilining lug‘at boyligi.** So‘zning atash ma’nosi. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari. Ko‘chimlar, metafora, metonimiya, sinekdoxa. Epitet. Mubolag‘a va kichraytirish. Ifodalilik va kinoya. Ifodalilik va o‘xshatishlar. Ifodalilik va ibora. Shevaga xos so‘zlar. Eskirgan so‘zlar. Olinma so‘zlar. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar. Tarixiy so‘zlar, arxaik so‘zlar. Ismlar ma’nosi. Atamalar (ilmiy atamalar, kasbiy atamalar: iqtisodiyotga oid terminlar, internetga oid terminlar, aniq fanlarga oid terminlar, ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid terminlar). Iboralar. Iboralarning qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan farqi. Maqollar. Hikmatli so‘zlar. Tasviriy ifoda. Lug‘at va lug‘atshunoslik. Izohli lug‘atdan foydalanish.<br>**So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.** Sinonimlar. Omonimlar. Antonimlar. Paronimlar. Uyadosh so‘zlar. |
| **1.5** | ***Uslubiyat***<br>**Nutq uslublari haqida ma’lumot.** Nutq uslublarining turlari: so‘zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub. Nutqiy uslublar va uslubiy bo‘yoq. Nutqiy uslublar va til vositalari. Til birliklaridan |

| | |
|---|---|
| | nutqda to‘g‘ri foydalana olish, ularning uslubiy xususiyatlari, uslubiy bo‘yoq hosil qilishda til birliklari orasidagi nozik farqlar. Nutqda o‘rinli va noo‘rin so‘zlar. Nutqdagi taqiqlar. Evfemizm va disfemizmlar. Olmoshlar uslubiyati. Ortiqcha qo‘shimchalar. Qo‘shimchalar tanlovi. Nutqda shakl va mazmun mosligi. Leksik vositalarni nutqiy uslublarda qo‘llash. Ma’nodosh (sinonim), shakldosh (omonim), zid ma’noli (antonim), paronim so‘zlar uslubiyati.<br>Morfologik vositalarni nutqiy uslublarda qo‘llash. Ko‘plik qo‘shimchasining uslubiyati. Kelishik qo‘shimchalarining uslubiyati. Kelishiklar ma’nodoshligi. Ko‘makchilar va kelishik qo‘shimchalari ma’nodoshligi. Subyektiv baho ifodalovchi qo‘shimchalar uslubiyati. Zamon qo‘shimchalarining uslubiyati. Shaxs-son qo‘shimchalarining uslubiyati. Inkor ifodalovchi morfologik vositalarning uslubiyati. Sintaktik vositalarni nutqiy uslublarda qo‘llash. Gapda so‘z tartibi uslubiyati. Ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlari uslubiyati. Ritorik so‘roq gaplar uslubiyati. Undalmalar uslubiyati. Gapda kiritmalar uslubiyati. Qo‘shma gaplar uslubiyati. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar uslubiyati. |
| **1.6** | ***Morfologiya***<br>**So‘z tarkibi.** Asos va qo‘shimchalar. Qo‘shimchalar tasnifi. So‘z yasovchi qo‘shimchalar. Tub va yasama so‘zlar. So‘z yasalishi me’yori. Asosdosh so‘zlar. Shakl yasovchi qo‘shimchalar va ularning tasnifi. So‘z tarkibida tartib. Sodda so‘zlar. Qo‘shma so‘zlar. Juft so‘zlar. Takror so‘zlar. Ismlarning lug‘aviy va munosabat shakllari. Egalik shakllari. Kelishik shakllari. Ismlarni kesimga xoslovchi shakllar.<br>**So‘z turkumlari.** Mustaqil, yordamchi va alohida olingan so‘z turkumlari haqida umumiy ma’lumot. **Mustaqil so‘zlar. Fe’l so‘z turkumi.** Fe’lning ma’noviy guruhlari. Harakat va holat fe’llari. O‘timli va o‘timsiz fe’llar. Fe’l nisbatlari. Fe’lning vazifa shakllari. Ko‘makchi fe’llar (ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalari). Fe’llarning munosabat shakllari. Fe’lning zamon shakllari. Fe’lning mayl shakllari. Fe’lning shaxs-son shakllari. Fe’llarning yasalishi. Fe’llarning tuzilishiga ko‘ra turlari.<br>**Ot so‘z turkumi.** Otning ma’no turlari. Atoqli otlar. Turdosh otlar. Shaxs, narsa, o‘rin-joy va faoliyat-jarayon otlari. Aniq va mavhum otlar. Otlarning lug‘aviy shakllari. Otlarning yasalishi. Otlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.<br>**Sifat so‘z turkumi.** Sifatning ma’no guruhlari. Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi. Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sifatlarning otlashishi.<br>**Son so‘z turkumi.** Sonlarning ma’no guruhlari. Hisob so‘zlari. Sonlarning otlashishi.<br>**Ravish so‘z turkumi.** Ravishlarning ma’no turlari. Ravishlarning yasalishi. Ravishlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.<br>**Olmosh so‘z turkumi.** Olmoshlarning ma’no turlari. Olmoshlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.<br>**Yordamchi so‘zlar.** Ko‘makchilar, bog‘lovchilar, yuklamalar va |

| | |
|---|---|
| | ularning xususiyatlari.<br>**Undov so'zlar. Taqlid so'zlar**. **Modal so'zlar.** |
| **1.7** | ***Sintaksis***<br>**Gapda so'zlarning bog'lanishi.** So'z birikmasi. Teng bog'lanish. Tobe bog'lanish. So'z birikmasi va so'zlar qo'shilmasi. So'z birikmasi va qo'shma so'z. So'z birikmasi va ibora.<br>**Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.**<br>**His-hayajon ishtirokiga ko'ra gap turlari.**<br>**Gapning tuzilishiga ko'ra turlari.**<br>**Sodda gap. Gap bo'laklari.** Kesim haqida umumiy ma'lumot. Ega haqida umumiy ma'lumot. Egali va egasiz gaplar. Gap bo'laklari tartibi. Hol haqida umumiy ma'lumot. To'ldiruvchi haqida umumiy ma'lumot. Aniqlovchi haqida umumiy ma'lumot. To'liq va to'liqsiz gaplar. Gapning uyushiq bo'laklari. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z. Ajratilgan bo'lakli gaplar. Kiritmalar (kirish so'z). Undalma. Gapning uyushiq bo'laklari, ajratilgan bo'laklar, undalma va kiritmalar yuzasidan tahlil.<br>**Qo'shma gaplar.** Kesimlik belgilari. Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar. Qo'shma gap turlari: bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar.<br>**Bog'langan qo'shma gap.** Birikturuv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap. Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap. Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap. Inkor bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap. Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gap va unda tinish belgilari.<br>**Ergash gapli qo'shma gap.** Bosh gap va ergash gap. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar. Ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog\`langan ergashgan qo\`shma gaplar. Ko'makchili qurilmalar yordamida bog\`langan ergashgan qo'shma gaplar. Deb so\`zi yordamida bog\`langan ergashgan qo\`shma gaplar. -sa shart mayli yordamida bog\`langan ergashgan qo\`shma gaplar. Ko\`rsatish olmoshili ergashgan qo\`shma gaplar. Nisbiy so\`zlar yordamida bog\`langan ergashgan qo\`shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gaplar bilan ma'nodoshligi. Ergashgan qo'shma gaplar yuzasidan tahlil.<br>**Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida ma'lumot.** Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning boshqa qo'shma gaplar bilan ma'nodoshligi.<br>**Ko'chirma gapli qo'shma gap haqida ma'lumot.** Ko'chirma gapli qo'shma gapning tuzilishi. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish. |

| | |
|---|---|
| **1.8** | ***Matn ustida ishlash***<br>Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar. Nutqning to‘g‘riligi. Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi va badiiy nutq. Nutqning mantiqiyligi. Mantiqiylik va grammatik vositalar. Mantiqiylik va matn kompozitsiyasi. Nutqning sofligi. Nutqning sofligi va badiiy nutq. Nutqning boyligi. Nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar. Nutqning jo‘yaliligi. Jo‘yalilik va uslublar. Nutqning ifodaliligi. Ifodalilik va ibora. Ifodalilik va ko‘chimlar. Ifodalilik va kinoya. Ifodalilik va o‘xshatishlar. Nutq madaniyati va nutq texnikasi. Nutq texnikasida urg‘u va to‘xtam (pauza).<br>**Ish yuritish.** Ish qog‘ozlari va ular bilan ishlash. |
| **2. ADABIYOT** | |
| **2.1** | ***Xalq og‘zaki ijodi***<br>Xalq og‘zaki ijodi tushunchasi. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari. Xalq og‘zaki ijodining tur va janrlari. O‘zbek xalq dostonlari. Maqollar. Topishmoqlar. O‘zbek xalq ertaklarining o‘ziga xos xususiyatlari (“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi, “Susambil” ertagi). Xalq qo‘shiqlari. “Ravshan” dostoni. “Kuntug‘mish” dostoni. “Alpomish” dostoni. “Rustamxon” dostoni. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni. |
| **2.2** | ***Mumtoz adabiyot namunalari, ularning badiiy tahlili va muallif ijodiga oid ma’lumotlar***<br>**Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo‘lgan adabiyot.**<br>O‘rxun-Enasoy obidalari.<br>Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar.<br>Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va ijodi. “Devonu lugat it-turk” asari.<br>Yusuf Xos Hojib ning hayoti va ijodi. “Qutadg‘u bilig” asari<br>Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi. “Devoni hikmat” asari.<br>Nosiruddin Rabg‘uziy ning hayoti va ijodi. “Qisasi Rabg‘uziy” asari.<br>Atoyining hayoti va ijodi. Atoyi lirikasi.<br>Lutfiyning hayoti va ijodi. Lutfiy lirikasi.<br>Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Alisher Navoiy lirikasi. Navoiyning epik asarlari. Xamsachilik tarixi. Alisher Navoiy “Xamsa”si. “Mahbub ul-qulub” asari. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.<br>Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi. Bobur lirikasi. “Boburnoma” asari.<br>Xojaning hayoti va ijodi. “Gulzor” asari.<br>Turdi Farog‘iyning hayoti va ijodi. Turdi Farog‘iy lirikasi.<br>Boborahim Mashrabning hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi.<br>Nodiraning hayoti va ijodi. Nodira lirikasi.<br>Jahon Otin Uvaysiyning hayoti va ijodi. Uvaysiy lirikasi.<br>Gulxaniyning hayoti va ijodi. “Zarbulmasal’ asari.<br>Muhammad Rizo Ogahiyning hayoti va ijodi. Ogahiy lirikasi. “Qasidayi nasihat” asari.<br>Avaz O‘tarning hayoti va ijodi. Avaz O‘tar lirikasi.<br>Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning hayoti va ijodi. “Sayohatnoma” asari |

| | |
|---|---|
| | va “Tanobchilar” hajviyasi.<br>Ubaydulloh Zavqiyning hayoti va ijodi. Zavqiy lirikasi.<br>Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning hayoti va ijodi. Furqat lirikasi.<br>Anbar Otinning hayoti va ijodi. “Risolayi falsafayi siyohon” (“Qarolar falsafasi risolasi”) asari). |
| **2.3** | ***XX asr o‘zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti namunalari, ularning badiiy tahlili va muallif ijodiga oid ma’lumotlar***<br>**Jadid adabiyoti. Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Nasriy, she’riy, dramatik asarlarning badiiy tahlili.**<br>Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodiy faoliyati. “Padarkush” dramasi.<br>Abdulla Avloniyning hayoti va ijodiy faoliyati. Avloniy she’riyati, “Ikkinchi muallim” asari.<br>Hamza Hakimzoda Niyoziy ning hayoti va ijodiy faoliyati. Hamza she’riyati.<br>Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati. Fitrat she'riyati. Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi.<br>Abdulhamid Cho‘lpon ning hayoti va ijodiy faoliyati. Cho‘lponning lirikasi. “Kecha va kunduz” romani.<br>Abdulla Qodiriy ning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari.<br>Usmon Nosirning hayoti va ijodiy faoliyati. Usmon Nosir she’riyati.<br>**Zamonaviy adabiyot. Nasr. Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Nasriy asarlarning badiiy tahlili.**<br>G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi. G‘. G‘ulomning “Shum bola” qissasi.<br>Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning hayoti va ijodi. Oybekning “Navoiy” romani.<br>Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. Abdulla Qahhor hikoyalari.<br>Mirkarim Osimning hayoti va ijodi. Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasi.<br>Asqad Muxtorning hayoti va ijodi. Asqad Muxtorning “Chinor” romani.<br>Said Ahmadning hayoti va ijodi. S.Ahmadning hikoyalari. S.Ahmadning “Ufq” romani.<br>Mirmuhsinning hayoti va ijodi. Mirmuhsinning “Me’mor” romani.<br>Pirimqul Qodirovning hayoti va ijodi. “Yulduzli tunlar” romani.<br>Odil Yoqubovning hayoti va ijodi. O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani va “Muzqaymoq” hikoyasi.<br>O‘lmas Umarbekovning hayoti va ijodi. “Qiyomat qarz” hikoyasi.<br>Turob To‘laning hayoti va ijodi. Turob To‘laning “Yetti zog‘ora” qissasi. (“Do‘nan” hikoyasi).<br>Xudoyberdi To‘xtaboevning hayoti va ijodi. X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani.<br>Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodiy faoliyati. “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi.<br>O‘tkir Hoshimovning hayoti va ijodi. O‘. Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi, “Dunyoning ishlari” qissasi va  “Ikki eshik orasi” romani. |

| | |
|---|---|
| | Tog‘ay Murod hayoti va ijodi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi.<br>Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi. Sh.Xolmirzayevning “Ot egasi” va “Omon ovchining o‘limi” hikoyalari.<br>Muhammad Alining hayoti va ijodi. “Sohibqiron o‘ylari” (“Ulug‘ saltanat” asari).<br>**Zamonaviy adabiyot. Dramaturgiya. Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Dramatik asarlarning badiiy tahlili**<br>Maqsud Shayxzodaning hayoti va faoliyati. M.Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi.<br>Sharof Boshbekovning hayoti va ijodi. Sh. Boshbekovning “Temir xotin” komediyasi.<br>Abdulla Oripovning hayoti va ijodi. “Sohibqiron” dramasi.<br>Erkin A’zamning hayoti va ijodi. E.A’zamning “Tanho qayiq” dramatik rivoyati.<br>**Zamonaviy adabiyot. She’riyat. Shoirlar ijodiga oid ma’lumotlar. Lirik, liro-epik asarlarning badiiy tahlili**.<br>G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi. G‘afur G‘ulom she'riyati.<br>Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hayoti va ijodi. Oybek she’riyati.<br>Hamid Olimjonning hayoti va ijodi. Hamid Olimjon she’riyati. “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni.<br>Mirtemirning hayoti va ijodi. Mirtemirning she’riyati.<br>Asqad Muxtor hayoti va ijodi. Asqad Muxtor she’riyati.<br>Zulfiyaning hayoti va ijodi. Zulfiya she’riyati.<br>Saida Zunnunova hayoti va ijodi. S.Zunnunova she’riyati.<br>Shuhratning hayoti va ijodi. Shuhratning “Mardlik afsonasi” balladasi.<br>Abdulla Oripovning hayoti va ijodi. Abdulla Oripov she'riyati.<br>Erkin Vohidovning hayoti va ijodi. E.Vohidovning she’riyati. “Ruhlar isyoni” dostoni.<br>Xayriddin Salohning hayoti va ijodi. X.Saloh she’riyati.<br>Omon Matjonning hayoti va ijodi. O.Matjon she’riyati.<br>Rauf Parfining hayoti va ijodi. Rauf Parfi she’riyati.<br>Halima Xudoyberdiyeva hayoti va ijodi. Halima Xudoyberdiyeva she’rlari.<br>To‘ra Sulaymonning hayot va ijodi. T.Sulaymon she’riyati.<br>Shavkat Rahmonning hayoti va ijodi. Sh.Rahmon she’riyati.<br>Muhammad Yusufning hayoti va ijodi. M.Yusuf she'riyati.<br>Anvar Obidjonning hayoti va ijodi. A.Obidjonning she’riyati.<br>Jamol Kamol, Oydin Hojiyeva, Usmon Azim, Xurshid Davron, Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo she’rlari. |
| **2.4** | ***Jahon adabiyoti namunalari, ularning badiiy tahlili va muallif ijodiga oid ma’lumotlar***<br>**Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Nasriy, she’riy, dramatik asarlarning badiiy tahlili**.<br>Ezop hayoti va ijodi. Ezop masallari.<br>Sa’diy Sheroziy hayoti va ijodi. “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari. |

| | |
|---|---|
| | Aka-uka Grimmlar. “Botir tikuvchi” ertagi.<br>Nodar Dumbadzening hayoti va ijodi. Uning “Hellados” hikoyasi.<br>Janni Rodari hayoti va ijodi. Uning “Rim ertaklari” asari va "Uchtadan oxiri bor ertaklar" turkumi to‘g‘risida. “Hurishni eplolmagan kuchukcha” ertagi.<br>Musa Jalil hayoti va ijodi. Musa Jalil “Ishonma” she’ri.<br>Abay hayoti va ijodi, uning “Nasihatlar” asari.<br>Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi. Ibroyim Yusupov she’riyati.<br>Rasul Hamzatov hayoti va ijodi. Uning she’rlari.<br>Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi. Chingiz Aytmatov. “Asrga tatigulik kun”romani va “Oq kema” qissasi.<br>Maxtumquli hayoti va ijodi. Uning lirikasi.<br>E.S.Tompsonning hayoti va ijodi. Adibning “Yovvoyi yo‘rg‘a” hikoyasi.<br>Fuzuliy hayoti va ijodi. Fuzuliy lirikasi.<br>Robindranath Thakur hayoti va ijodi. Uning “Shubxa” hikoyasi.<br>Sergey Yesenin hayoti va ijodi. Uning she'riyati.<br>Shekspir hayoti va ijodi. V. Shekspirning “Hamlet” fojiasi.<br>O‘ljas Sulaymonov hayoti va ijodi. O‘ljas Sulaymonov she’riyati.<br>Jek London hayoti va ijodi. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasi.<br>Alfons Dodening hayoti va ijodi. Alfons Dodening “So‘nggi saboq”hikoyasi.<br>A.P.Chexov hayoti va ijodi. A.P.Chexovning hikoyalari.<br>Rashod Nuri Guntekinning hayoti va ijodi. “Choliqushi” romani. |
| **2.5** | ***Mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlar, ularning badiiy tahlili***<br>**Tarixiy mavzudagi badiiy asarlar va ularning tahlili.**<br>Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani<br>Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani<br>Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi<br>Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romani<br>Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” qissasi<br>**Turli mavzulardagi badiiy asarlar tahlili.**<br>Cho‘lponning "Kecha va kunduz" romani<br>Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni<br>O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi va “Ikki eshik orasi” romani<br>Tog‘ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi |
| **2.6** | ***Adabiyot nazariyasi va badiiy tahlil***<br>Adabiy turlar. Og‘zaki adabiyot (folklor). She’riy, nasriy, dramatik janrlar haqida tushuncha. Ramziy obrazlar. Badiiy obraz va mubolag‘ali tasvir. She’r vaznlari haqida tushuncha. She’riy san’atlar haqida ma’lumot (tashbih, tanosub, tashxis, tazod, talmeh, irsoli masal, iyhom, husni ta’lil, tajohul ul-orif, ishtiqoq, tadrij, mubolag`a, tasdir, tasbe, tardi aks, nido kabilar she’riy san’atlar haqida tushuncha). Ko‘chim. Qofiya va radif haqida tushuncha. |

**5. Ona tili va adabiyot faniga oid kognitiv ko‘nikma darajalari**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | quyi kognitiv daraja | – o‘zbek tili leksikasida mavjud so‘zlarning imlosini bilish;<br>– o‘zbek tilining imlo qoidalarini, punktuatsion me’yorlarni, til birliklarining leksik-grammatik xususiyatlarini bilish, tilga xos umumiy qonuniyatlar, qoidalarni tushunish;<br>– til birliklarini nutqda to‘g‘ri qo‘llash;<br>– grammatik qoidalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushungan holda ularni gapda to‘g‘ri qo‘llash;<br>– asar voqealarini va asar qahramonlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni bilish, badiiy asarda ifodalangan voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni va asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini tushunish, adibning ijodiy faoliyati va asar haqidagi umumiy ma’lumotlarni bilish. |
| 2. | yuqori kognitiv daraja | – berilgan matn yoki parchada qo‘llangan til birliklarini tarkibiy qismlarga ajrata olish;<br>– til birliklarining leksik-grammatik xususiyatlarini qiyosan tahlil qila olish, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash;<br>– asarda (parchada) qo‘llangan badiiy-tasviriy vositalarni aniqlash, ularning badiiy ahamiyatini tahlil qila olish;<br>– badiiy asar (parcha) matnini lingvistik tahlil qila olish;<br>– badiiy asarning badiiy-g‘oyaviy xususiyatlarini tahlil qila olish. |

**6. Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar**

Ona tili va adabiyot faniga oid test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda ona tili va adabiyot faniga oid fan dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

| Fan | Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar | | Kodi |
|---|---|---|---|
| ONA TILI | Lingvistik kompetensiya | **Savodxonlik** | **1.1** |
| | | O‘zbek tilining imlo qoidalarini bilish, tovush va harf munosabatini tushunish. | 1.1.1 |
| | | Tinish belgilarining vazifasini va ahamiyatini tushunish va ularni to‘g‘ri qo‘llash. | 1.1.2 |
| | | **Lug‘at boyligi** | **1.2** |
| | | Tilda mavjud leksik birliklar va ularning leksik-semantik xususiyatlarini, til taraqqiyoti bilan bog‘liq leksik hodisalarni bilish. | 1.2.1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Til birliklarining (leksik-grammatik vositalarning) uslubiy xususiyatlarini bilish va nutqda to‘g‘ri qo‘llash. | 1.2.2 |
| | | **Grammatika** | **1.3** |
| | | So‘z tarkibini bilish, so‘zni morfemik tarkibga ajrata olish, tahlil qila olish, asos va qo‘shimchalarning nutqdagi ahamiyatini tushunish va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash. | 1.3.1 |
| | | Mustaqil so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlarini bilish, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunish, farqlash. | 1.3.2 |
| | | Yordamchi so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlarini bilish, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunish, farqlay olish. | 1.3.3 |
| | | So‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini bilish, tushunish. | 1.3.4 |
| | | Gap bo‘laklarining grammatik xususiyatlarini bilish, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunish va farqlay olish, gapni gap bo‘laklariga ajrata olish, gap tarkibini tahlil qila olish. | 1.3.5 |
| | | Gaplarning o‘zaro bog‘lanishini tahlil qila olish. | 1.3.6 |
| | Nutqiy kompetensiya | **Rasmiy yoki publitsistik matnni o‘qib tushunish** | **2.1** |
| | | Matn yoki uning qismlari orqali ifodalangan ma’lumotlarni tushunish, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qila olish. | 2.1.1 |
| | | Matndagi til birliklarining (leksik, grammatik yoki sintaktik birliklarning) ma’nosi, vazifasi yoki maqsadini tahlil qila olish. | 2.1.2 |
| | | Matnda bir yoki bir nechta gaplarda ifodalangan ma’lumotlarni qayta ifoda eta olish (perefraza qilish). | 2.1.3 |
| | | **Ilmiy-ommabop yoki ilmiy matnni o‘qib tushunish** | **2.2** |
| | | Matn yoki uning qismlarining umumiy ma’nosini tushunish. Matnda bir yoki bir nechta gaplarda ifodalangan ma’lumotlarni qayta ifoda eta olish (perefraza qilish). | 2.2.1 |
| | | Matndagi til birliklarining (leksik, grammatik yoki sintaktik birliklarning) ma’nosi, vazifasi va maqsadini tahlil qila olish. | 2.2.2 |
| | | Matn va undagi verbal va vizual ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tushunish (jadvallar, grafiklar, diagrammalar, illyustratsiyalar va boshqa vostilar yordamida ifodalangan axborotlarni tahlil qila olish). | 2.2.3 |
| A BI Y | l qil is | **Xalq dostonlarining badiiy tahlil** | **3.1** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | Xalq dostonlarida tasvirlangan voqea-hodisalarni bilish, tahlil qila olish, obrazlarni tasniflay olish. | 3.1.1 |
| | | **Mumtoz adabiyotga oid asarlar va ularning badiiy tahlili** | **3.2** |
| | | Mumtoz adabiyotga oid nasriy yoki she'riy asar (parcha)da ifodalangan voqea-hodisalarni bilish, tahlil qila olish, ularning ta'limiy-axloqiy ahamiyatini baholay olish, obrazlarning xarakter xususiyatini aniqlay olish, badiiy asar haqidagi ma'lumotni bilish | 3.2.1 |
| | | Alisher Navoiy ijodiga oid nasriy, she'riy asarlarni bilish, ularni tushunish, badiiy tahlil qila olish. | 3.2.2 |
| | | **Zamonaviy adabiyotga oid asarlar va ularning badiiy tahlili** | **3.3** |
| | | Nasriy asarda ifodalangan voqea-hodisalarni bilish, tahlil qila olish, ularning ta'limiy-axloqiy ahamiyatini baholay olish, obrazlarnining xarakter xususiyatini aniqlay olish, badiiy asar haqidagi ma'lumotni bilish. | 3.3.1 |
| | | Dramatik asarda ifodalangan voqea-hodisalarni bilish, tahlil qila olish, ularning ta'limiy-axloqiy ahamiyatini baholay olish, obrazlarnining xarakter xususiyatini aniqlay olish, badiiy asar haqidagi ma'lumotni bilish. | 3.3.2 |
| | | She'riy asarda ifodalangan voqea-hodisalarni tahlil qila olish, ularning ta'limiy-axloqiy ahamiyatini baholay olish, badiiy-tasvir vositalarini farqlay olish, obrazlarnining xarakter xususiyatini aniqlay olish, badiiy asar haqidagi ma'lumotni bilish. | 3.3.3 |
| | | **Jahon adabiyotiga oid asarlar va ularning badiiy tahlili** | **3.4** |
| | | Jahon adabiyotiga oid asarlarda ifodalangan voqea-hodisalarni bilish, tahlil qila olish, ularning ta'limiy-axloqiy ahamiyatini baholay olish, obrazlarnining xarakter xususiyatini aniqlay olish, badiiy asar haqidagi ma'lumotni bilish. | 3.4.1 |
| | | **Mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlar va ularning badiiy tahlili** | **3.5** |
| | | Tarixiy mavzudagi badiiy asarning (parchaning) umumiy mazmunini tushunish, asar sujetini bilish, badiiy matnda aks etgan nutq tiplari, tasvir vositalarini va ularni qo'llashdan ko'zlangan maqsadni tushunish, asar qahramoni xarakteriga xos bo'lgan fazilatlar va xislatlarni | 3.5.1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | tahlil qila olish. | |
| | | Turli mavzulardagi badiiy asarning (parchaning) umumiy mazmunini tushunish, asar sujetini bilish, badiiy matnda aks etgan nutq tiplari, tasvir vositalarini va ularni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni tushunish, asar qahramoni xarakteriga xos bo‘lgan fazilatlar va xislatlarni tahlil qila olish. | 3.5.2 |
| | Adabiy-nutqiy kompetensiya | **Badiiy matn ustida ishlash (she’riy matn)** | **4.1** |
| | | Tanish asar (parcha)ga oid matnning mazmunini, undagi fonetik, leksik, grammatik vositalarning ma’nosini va ahamiyatini tushunish. | 4.1.1 |
| | | Tanish asar (parcha)ga oid matnda qo‘llangan badiiy-tasvir vositalarini aniqlash, ularning badiiy ahamiyatini tahlil qila olish, asar matnini lingvistik tahlil qila olish (asarning janri, badiiy unsurlari (qofiya, radif, raviy v.h.), she’riy san’atlarini tahlil qila olish). | 4.1.2 |
| | | Notanish asar (parcha)ga oid matnning matnning mazmunini, undagi fonetik, leksik, grammatik vositalarning ma’nosini va ahamiyatini tushunish. | 4.2.1 |
| | | Notanish asar (parcha)ga oid matnda qo‘llangan badiiy-tasvir vositalarini aniqlash, ularning badiiy ahamiyatini tahlil qila olish, asar matnini lingvistik tahlil qila olish (asarning janri, badiiy unsurlari (qofiya, radif, raviy v.h.), she’riy san’atlarini tahlil qila olish). | 4.2.2 |

**7. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga):**

- 40 ta test topshirig‘i uchun 80 daqiqa.

***Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan.***